



"INNOVATIVE ACHIEVEMENTS IN SCIENCE 2026"

DIDAKTIK O'YINLAR ORQALI O'QUVCHILARDA IJTIMOYIY TAJRIBA VA KOGNITIV KOMPETENSIYANI SHAKLLANTIRISH OMILLARI.

Usmanov Esanbay Shirmatovich

Angren Universiteti "Pedagogika va psixologiya" kafedrası, dotsent v.b.psixologiya fanlari nomzodi.

Annotatsiya: Ushbu maqolada didaktik o'yinlarning ta'lim-tarbiya jarayonida bolalarning ijtimoiy va kognitiv rivojlanishiga ta'siri tahlil qilinadi. O'yin faoliyati bolalarda tafakkur, nutq, ijtimoiy moslashuv va ijodiy qobiliyatlarning shakllanishida muhim vosita bo'lib xizmat qiladi. Psixologik va pedagogik nazariyalar hamda empirik tadqiqotlar yordamida didaktik o'yinlarning ahamiyati va pedagogik qo'llanilishi to'g'risida fikr yuritiladi.

Kalit so'zlar: *Ijtimoiy moslashuv, kognitiv rivojlanish, psixologik nazariyalar, hamkorlik va muloqot ko'nikmalari.*

Bolalarning maktab ta'limi davrida shaxs sifatida shakllanishi va ularning keyingi ta'lim-tarbiya jarayoniga tayyorgarligi muhimdir. Bu davrda o'yin-bolaning tabiatiga mos, eng tabiiy faoliyat turi hisoblanadi. Didaktik o'yinning asoschilari hisoblangan va uning taraqqiyotiga salmoqli hissa qo'shgan Yan Amos Komenskiy ta'limda o'yinning ahamiyatini alohida ta'kidlagan bo'lsa, Iogann Genrix Pestalotstsi o'yin orqali ta'lim berishni har tomonlama qo'llab-quvvatlagan. Xususan, Fridrix Frobel-bolalarning tabiiy qiziqishlarini qondirishda o'yinning o'rnini beqiyosligini e'tirof etgan bo'lsa, Lev Vigotskiy-didaktik o'yinlarning bolalar ijtimoiy va kognitiv rivojidagi o'rnini alohida ta'kidlagan.

Odatda didaktik o'yinlar ta'lim jarayonida turli jihatlariga ko'ra tasniflanadi: Masalan, mavzusiga ko'ra o'yinlar o'zaro farqlansa, maqsadiga ko'ra bilimni mustahkamlash, yangi materialni o'rgatish, ijtimoiy malakalarni rivojlantirish va boshqa, faollik shakliga ko'ra, guruhli, juftlik, individual o'yinlar hamda vositalariga ko'ra rasmiy, predmetli, kompyuter va boshqa o'yinlarga ajratiladi.

Didaktik o'yinning afzalliklari qiziqarliligi, faollikka undashi, guruhda ishlash, muloqot qilish, hamkorlik qilish, takrorlash va mustahkamlashning osonligi, ijodiy qobiliyatlarni oshirish imkoniyatining kattaligida namoyon bo'ladi.

Didaktik o'yinning o'ziga xos nuqsonlari mavjud bo'lib, ular o'yinni tashkil etish va o'tkazish uchun qo'shimcha vaqt talab qilishi, noto'g'ri tashkil etilgan, samarasiz bo'lishi, maqsadi va metodlari noto'g'ri tanlansa, o'quvchilarni charchatishi, ba'zi o'quvchilar o'yinlarga qiziqmasligi yoki o'yinda ishtirok etishda qiyinchiliklarga duch kelishi kabilarda o'z aksini topadi.

Didaktik o'yinlar-maqsadli ravishda ta'lim-tarbiya jarayonida qo'llaniladigan o'yin turlari bo'lib, unda bola o'yin qoidalari ichida bilim va ko'nikmalarni egallaydi. "Didaktik o'yin" tushunchasi ta'lim jarayonida o'yin elementlarini maqsadli integratsiyalashni anglatadi-ya'ni o'yin shaklida, lekin pedagogik maqsad bilan tashkil etilgan faoliyat. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, didaktik o'yinlar bolada qiziqish uyg'otadi va an'anaviy mashg'ulotlarga nisbatan



"INNOVATIVE ACHIEVEMENTS IN SCIENCE 2026"

bilimni tezroq, qiziqarliroq shaklda egallashga yordam beradi. Shuningdek, didaktik o'yinlar quyidagi xususiyatlarga ega bo'ladi:

- o'yin qoidalari bilan tashkil etilgan, lekin maqsadli: o'yin ichida belgilangan bilim yoki ko'nikma egallash.
- faol ishtirokchilik: bola passiv tinglovchi emas, faol harakat qiladi.
- xayoliy element: o'yin o'z ichida ma'lumotni qabul qilish jarayonini o'yin shaklida olib boradi.
- pedagogik nazorat va boshqaruv: o'yin jarayoni oldindan tashkil etilgan va maqsadga yo'naltirilgan.

Didaktik o'yinlar bolaga o'qish-yozish, nutq, hisob, shakl va ranglar kabi ko'nikmalarni o'zlashtirishda ham yordam beradi. Shuningdek, bu o'yinlar bolaning ichki motivatsiyasini oshiradi, chunki o'yin-tabiiy faoliyat turi va bola uchun qiziqarli. Bolalarning ijtimoiy rivojlanishi deganda, ular jamiyat ichida o'zaro munosabatlarni shakllantirishi, boshqa bolalar va kattalar bilan muloqot qilishi, jamoaviy faoliyatga qo'shilishi nazarda tutiladi. Didaktik o'yinlar bu jarayonga bir nechta jihatdan ijobiy hissa qo'shadi:

1. Hamkorlik va muloqot ko'nikmalari-O'yin jarayonida bolalar ko'pincha birgalikda harakat qilishadi-navbat kutish, qoidaga rioya qilish, bir-biriga yordam berish va boshqalarning fikrini tinglash. Masalan, rolli o'yinlar ("do'konchi-mijoz", "shifokor-bemor") bolaga jamoadagi o'z rolini tushunish, o'zini tutish va boshqalarni tushunish imkonini beradi.

2. Empatiya va ro'l o'ynash-Roli o'zgarishiga asoslangan o'yinlar bolaning boshqa kishilarning nuqtai nazarini tushunishida yordam beradi-ya'ni empatiya rivojlanadi. O'yin orqali bola turli rollarni sinab ko'radi va shu bilan ijtimoiy munosabatlardagi turli pozitsiyalarni anglaydi.

3. Ijtimoiy norma, qoidalar va me'yorlar-O'yinda qatnashish jarayonida bola qoidalarni o'rganadi-bu navbatni kutish, qatnashish, g'olibni tabriklash, g'alaba qilganda ham hurmat ko'rsatish kabi ijtimoiy me'yorlarni o'zlashtiradi. Bunday moslashuv ijtimoiy hayotda muhim ahamiyatga ega.

4. Ijtimoiy moslashuv va shaxsning o'zini tutishi-Bolalar o'yin orqali jamoaviy faoliyatga qo'shilishadi, boshqalar bilan tanishadi va ular bilan muvofiqlikda ish ko'rishga o'rganadi. Bu tajriba ular uchun keyingi maktab hayoti va jamiyatdagi ro'lini yaxshi anglashga zamin yaratadi. Shu bilan birga, ijtimoiy jihatdan boy muhitda didaktik o'yinlar orqali bola o'zini jamoadagi faol ishtirokchi sifatida his qiladi, bu esa uning ijtimoiy motivatsiyasini va o'zini baholashini yaxshilaydi.

Didaktik o'yinlarning kognitiv rivojlanishdagi o'rni-e'tibor, xotira, tafakkur, til, muammo hal qilish va tanqidiy fikrlash kabi psixik jarayonlarning shakllanishi demakdir. Didaktik o'yinlar bu jarayonlarni faol ravishda rag'batlantiradi, masalan:

1. Diqqat, xotira va tafakkur-O'yinlar bolaning diqqatini jalb qiladi: u o'yin qoidalariga rioya qilishi, o'z navbatini kutishi, belgilarni tanishi, xotiraga tortadigan elementlarga e'tibor berishi talab qilinadi. Masalan, "qaysi rang ko'proq", "nimani esladig?" kabi o'yinlar xotiraga, diqqatga hamda tarjima va qayta ishlashga xizmat qiladi.



"INNOVATIVE ACHIEVEMENTS IN SCIENCE 2026"

2. Muammo hal qilish va ijodiy fikrlash-Didaktik o'yinlar muammoli vaziyatlarni o'z ichiga oladi-masalan, bolalar bloklardan turli shakllar yasaydi, jumboqlarni hal qiladi, navbatdagi qadamni rejalashtiradi. Bu jarayonda ijodiy fikrlash va tanqidiy fikrlash (qaysi yechim yaxshiroq, nima uchun) shakllanadi.

3. Til va nutq faoliyati-O'yin jarayonida bolalar o'z fikrini bildirishadi, boshqa bolalar bilan gaplashadi, rollarni o'z ichiga olgan dialoglar yaratadi. Bu nutq faoliyatini quvvatlaydi-so'z boyligini oshiradi, fikr almashishni rag'batlantiradi.

Pedagogik jihatdan, didaktik o'yinlar tayyorgarlik, kuzatish, mutanosiblik va xulosa chiqarish kabi ko'nikmalarni o'yin shaklida rivojlantirishga imkon beradi. Ular o'quv motivatsiyasini oshiradi, chunki bola "o'ynab o'rganadi" va bu jarayon unga quvonch bag'ishlaydi. Didaktik o'yinlarni pedagogik muhitga samarali integratsiyalash uchun quyidagi bosqichlar muhim hisoblanadi:

- O'yin maqsadini aniq belgilash-bolalar nimani o'rganishi kerakligi (ranglar, shakllar, matematik tushunchalar, muloqot ko'nikmalari) aniqlanadi.

- O'yin qoidalari va strukturasi belgilanishi-sodda bosqichdan boshlab murakkabroq darajaga o'tish.

- Bolalarning yoshiga va tayyorgarlik darajasiga mos o'yin tanlash.

- O'yin jarayonida pedagogik boshqaruv-bola faoliyatini to'g'ri yo'naltirish, tarkibiy qo'yilmalarni taqdim etish.

- O'yin yakunida refleksiya-bolalar bilan o'yin natijasi muhokama qilinadi: "Nimani o'rgandik?", "Qanday qiyinchiliklar bo'ldi?", "Nima qilishni taklif qilasan?" kabi.

- Didaktik o'yinlarni o'zaro bog'lab, tizimli ravishda qo'llash-muntazam va izchil.

Amalda, ta'lim muassasalarida didaktik o'yinlar shaklida rang, shakl, raqam, so'z boyligini rivojlantirish, muloqot ko'nikmalarini shakllantirishga qaratilgan mashg'ulotlar keng qo'llaniladi. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, didaktik o'yinlar yordamida bolaning xotirasi, tafakkuri, e'tibori sezilarli darajada o'sadi. Albatta, didaktik o'yinlarning ham ba'zi cheklovlari mavjud:

- Hamma o'yinlar pedagogik maqsadga mos emas-noto'g'ri tanlangan o'yin bola uchun faqat o'yin bo'lib qoladi, ta'limiy natija bermaydi.

- O'yin ichidagi ko'nikmalarni real hayotga o'tkazish (transfer) doimo sodir bo'lmaydi. O'yin sharoiti bilan real hayot sharoiti farq qiladi.

- Ortacha yo'naltirilmagan o'yinlar bolani faqat o'yinga berilib qolishi, boshqa turdagi faoliyatlardan chetlatishi mumkin.

- Pedagoglar yoki ota-onalar o'yin jarayonini to'liq boshqara olmaydi yoki bola bilan munosabatida yetarlicha tajribaga ega bo'lmasligi mumkin.

Didaktik o'yinlar bolalarning ijtimoiy va kognitiv rivojlanishida o'ziga xos, samarali va quvonchli vositadir. Ular bolaning tafakkurini, nutqini, muloqotini, jamoaviy faoliyatini rivojlantiradi. Bunday o'yinlar orqali bola bilimni "o'yin shaklida", faol va qiziqarli o'zlashtiradi. Psixologik nazariyalar (Vigotskiy, Piaget, Elkonin) didaktik o'yinlarni bolaning rivojlanishida markaziy o'rinda deb belgilaydi. Pedagogik jihatdan esa didaktik o'yinlardan



"INNOVATIVE ACHIEVEMENTS IN SCIENCE 2026 "

foydalangan holda, bolalarning qiziqishi, mustaqil fikrlashi va ijodiy yondoshuvini rag'batlantirish mumkin.

Didaktik o'yinlar ta'limni samarali amalga oshirishning muhim mexanizmlaridan biri hisoblanib, ta'lim jarayonida o'quvchilarning faolligini oshirish, o'rganilayotgan mavzuga qiziqishini uyg'otish, bilimlarni mustahkamlash, amaliy ko'nikmalarni shakllantirish hamda ijtimoiy, ma'naviy va intellektual rivojiga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Vigotskiy L.S. O'yin va uning bola rivojlanishidagi roli. -Moskva, 1984.
2. Piaget J. The Psychology of the Child. -New York, 1969.
3. Zunnunov A. Pedagogika. -Toshkent: O'zbekiston, 2020.
4. Xolmatova M. Maktabgacha ta'lim metodikasi. -Toshkent, 2018.
5. Mavlonova R.A. Ta'lim jarayonida o'yin texnologiyalaridan foydalanish. -Toshkent, 2022.